

«Tasdiqlayman»

Toshkent viloyati AYBB

boshlig'i F.O. Axmatxonov



2022 yil

**TEXNIK TOPSHIRIQ № 5**  
**Buyurtmachi:- Toshkent viloyati AYBB**

**Avtomobil yo'llari davlat kadastrini ma'lumotlarini ishlatilishi** -O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha istiqbolga rejalashtirish dasturlarini ishlab chiqishda va yuridik xamda jismoniy shaxslarni kadastr axboroti bilan ta'minlash.

**Avtomobil yo'llari davlat kadastrini ishlarini amalga oshirishning alohida shartlari**

**Kompleks topografik-geodezik ishlari:**

Davlat geodeziya tarmog'i punktlarini o'rganish;

Davlat geodeziya tarmoqlariga bog'lagan holda s'yomka xududiga joylashtiriluvchi punktlar koordinatalarini GPS yordamida aniqlash;

S'yomka xududi bo'ylab teodolit (taxeometr) yo'li yotqizish;

1:500 masshtabli va rel'ef kesimi 0.5 metr bo'lgan s'yomka ishlarini bajarish;

GPS yordamida aniqlangan punktlar koordinatalarini tenglash;

S'yomka materiallarini qayta ishlash;

1:500 masshtabli elektron raqamli planlar yaratish;

Elektron raqamli planlar yaratish va chop etish;

Koordinatalar katalogini tuzish;

Texnik loyixa tayyorlash va Kadastr agentligidan ro'yxatdan o'tkazish;

Kompleks texnik xisobot tayyorlash.**Avtomobil yo'li yer maydonini yo'qlamadan**

**(inventarizatsiyadan) o'tkazish ishlari:**

Dala ishlariga tayyorgarlik va dala ishlarini amalga oshirish;

Geodezik ishlarning yakuniy materiallari yordamida yer tuzish kartalarini yaratish;

Yer uchastkalari maydonlarini hisoblash;

Yer uchastkasining hisoblangan maydonlarini tekshirish;

Avtomobil yo'li hududi va unga yondosh xududlardagi yerdan foydalanuvchilar bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish va ularni tasdiqdan o'tkazish ishlari.

**Avtomobil yo'lining Geografik axborotlar tizimi (GAT)ni yaratish ishlari:**

Mavjud AutoCAD fayllarini tahlil qilish va ESRI ArcGIS formatlari ma'lumotlar bazasi strukturalarini yaratish;

Mavjud materiallarni ArcGIS formatiga konvertatsiya qilish ishlari;

Ma'lumotlar bazasida Avtomobil yo'li qatlamini yaratish;

AutoCAD (dxf) formatida yaratilgan obektlarni vektorizatsiya qilish;

Ma'lumotlar bazasida bino va inshootlar qatlamini yaratish ishlari (poligon);

Ma'lumotlar bazasiga atributiv ma'lumotlarni kiritish;

Texnik loyixa tayyorlash va Kadastr agentligidan ro'yxatdan o'tkazish;

Kompleks texnik xisobot tayyorlash.

Toshkent viloyati xokimiyatidan yer uchastkalaridan doimiy foydalanish huquqi bilan qaror chiqarish hamda davlat ro'yhatidan to'liq o'tkazish


**Standartlarga rioya qilish talablari** - Amaldagi standartlar, normativ hujjatlar va qoidalar, yo'riqnomalar, qonunchilik hujjatlari. Amalga oshirilgan ishlar ushbu topshiriq talablariga binoan qabul qilinadi

**Topshirish-qabul qilish tartibi** - Amalga oshirilgan ishlar amaldagi tartiblar bo'yicha rasmiylashtiriladi va 1 nusxada tayyorlanadi, hamda buyurtmachiga topshiriladi

**Avtomobil yo'llari davlat kadastr ishlarini amalga oshirishning muddatlari** shartnomada belgilanadi.

**BUYURTMACHI**

**ma'sul vakil**

  
\_\_\_\_\_ A. Hazayob.